

## Ranglarning xususiyatlari va insonlarga ta'siri

Bobur Abdug'ani o'g'li Nabihev

nabiyevbobur6677@gmail.com

Xonzodaxon Isroiljon qizi Anvarova

Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rangtasvirda ishlataladigan ranglarning turlari, ranglarning insonlar psixologiyasiga ta'siri va ranglardan foydalanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** rang, spektr, to'q, och, kayfiyat, organizm, issiq, sovuq

## Properties of colors and their impact on humans

Bobur Abdugani oglu Nabihev

nabiyevbobur6677@gmail.com

Khonzodakhon Isroiljon kizi Anvarova

Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article discusses the types of colors used in painting, the impact of colors on human psychology, and the use of colors.

**Keywords:** color, spectrum, dark, light, mood, organism, hot, cold

Ranglarning insonga ta'siri murakkab va turli sabablar bilan aniqlanadi. Hamma organizmlar-o'simliklar ham, hayvonlar ham ranglardan turlicha ta'sirlanadilar. To'lqinlarning aniqrog'i, turli ranglarning turli uzunlikdagi yorug'lik nurlari organizm yashash faoliyatiga spetsifik ta'sir ko'rsatadi: bir rang nurlari hayot jarayonlarining ancha tez va jadal o'tishiga yordam beradi, boshqa ranglar nurlari bu jarayonlarning o'tishini sekinlatadi. Odam organizmi ranglarning bevosita ta'siriga uchraydi. Buni yorug'lik nurlarining organizmga fiziologik ta'siri deb atash mumkin, lekin bunga ranglarning insonga ta'siri haqidagi butun masalani to'liqligicha kiritish mumkin emas.

Insonda ong mavjud. Biz nafaqat to'lqinlarning turli uzunlikdagi yorug'lik nuriga duch kelamiz, balki biz ranglarni idrok qilamiz va ularni bizni o'rab turgan ob'yektiv olam sifatlaridan biri sifatida idrok qilamiz. Ranglar biz uchun o'z-o'zicha emas, u yoki bu buyumlaming xususiyatlari sifatida mavjud. Yashil rang - o'simliklar bilan, moviy rang - osmon bilan, to'q sariq-qizil esa - olov bilan bog'liq bo'ladi va hokazo. Shuning uchun ranglar bizning ongimizda u yoki bu predmetlar, buyumlar, ba'zida butun bir ko'rinish, hodisalar bilan bog'lanadi. Bu bog'lanishlar (assotsiatsiyalar)

o‘zida jamoa tajribasini ifodalab, ko‘p sonli odamlar uchun umumiy bo‘lishi (yashil rangning o‘simliklar bilan, moviy rangning yorug‘ osmon bilan assotsiatsiyalari Shunday), u yoki bu insonning xotiralarini ifodalab, individual bo‘lishi mumkin. Mazkur ranglarning psixologik ta’siri shaxsga xos bo‘lgan tajribalarga asoslangan bo‘lib, bugungi kunda u butun jamoaning o‘tmishdagi tajribalari bilan ham bog‘liqdir.” Bizni turli ranglar bilan bog‘laydigan o‘sha tasavvurlar, obrazlar, fikrlar, hissiyotlar, kayfiyatlarning katta qismi o‘zimizning sotsial mansubligimiz bilan belgilanadi. Rangning sotsial funksiyasi rang simvolikasida yaqqol bogianadi. Ranglar ko‘pincha siyosat, kasb, din yoki kundalik hayotda ramziy ma’noda qo‘llaniladi. Ayrim hollarda ranglarning ramziy mazmuni ularning fiziologik va psixologik ta’siri bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ma’lum bir sotsial jamoa ongida paydo bo‘lib va mustahkamlanib, rangning ramziy ahamiyati, bu rangning jamoa a’zolariga ta’sirini belgilovchi kuchliomil bo‘lib qoladi.

Rangning inson organizmiga ta’siri. Ranglarning inson organizmiga ta’siri haqidagi masalaga o‘tamiz. Qisqa to‘lqinlar bilan xarakterlanuvchi ranglar-moviy, ko‘k, binafsharang hayotiy jarayonlarni zaiflashtiradi va sekinlashtiradi, faollikni kamaytiradi (passiv ranglar). O‘rtacha uzunlikdagi to‘lqinlar bilan xarakterlanuvchi yashil rang oraliq holatni egallaydi, ancha toza yashil tuslar, ayniqsa, sovuq yashil ranglar passiv ranglar guruhiga tegishli. Iliq yashil, sargish yashil ranglar neytral hisoblanadi.

Ranglarning jo‘shqinlantiruvchi va xotirjam qiluvchi ta’sirlarining eng puxta tadqiqotini Leypsig psixologiya institutida Stefanesku-Goang o‘tkazgan.

U bir qancha kishilarga juda to‘yingan ranglarning katta maydonini ko‘rsatdi va bunda maxsus uskunalar yordamida nafas olish va tomir urish tezligi va chuqurligini qayd etdi. Shuningdek, tajriba ishtirokchilar har bir taqdim etilgan rangning ularning ruhiy holatiga qanday ta’sir ko‘rsatganini batafsil tarzda bayon qilishdi. Ma’lum boidiki, to‘q qizil, qizil, to‘q sariq va sariq ranglar nafas olish va tomir urishida har qanday kuchli qo‘zg‘alishda kuzatiladigan o‘zgarishlarni hosil qilgan. Nafas olish teztez va chuqurlashadi, buning ustiga nafas chiqarish davomliligi hisobiga nafas olish davomliligi ko‘payadi, tomir urishi ko‘payadi va kuchayadi, Bunday alomatlar ayniqsa, qizil rang ta’sirida aniq ko‘rinadi.

Yashil, moviy, ko‘k hamda binafsha ranglar esa aksincha ta’sir ko‘rsatgan. Bunda nafas olish sekinlashdiva uncha chuqur emas, nafas chiqarish davomliligi ko‘paydi, tomir urishi zaiflashdi va kamaydi. Yashil rang ta’sirida bu hamma alomatlar boshqa ranglar ta’siridagidan kamroq keskinlikda aks etdi.

Sinovdan o‘tkazilayotgan kishilarning bergan hisobotlari ikkala guruhdagi ranglar har birining psixologik ta’sirining o‘ziga xos xususiyatini ham ko‘rsatadi.

Sinov ishtirokchilarining fikrlariga ko‘ra, birinchi guruhga kiruvchi ranglar jonlantiruvchi ta’sirning turli ko‘rinishlarini namoyon etadi. Qizil rang faol, sezgir va

noodatiy xususiyatlarga ega bo‘lib, kuchli hayajon uyg‘otadi. To‘q sariq rang esa, qizilga nisbatan yumshoqroq bo‘lsa-da, quvnoq, yoqimli va xushchaqchaq kayfiyatni yuzaga keltiradi. Sariq rang esa tetiklashtiruvchi va quvonch baxsh etuvchi ta’sirga ega; u qizilning kuchli ta’siridan farqli o‘laroq, yumshoq, nafis va jiddiylik bilan uyg‘unlashgan faol tusda namoyon bo‘ladi. To‘q qizil rangning jonlantiruvchi ta’siri esa alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘zida jalb etuvchi, ulug‘vorlik va tantanalilikni mujassam etadi hamda ichki osoyishtalikni his etishga yordam beradi.

Ikkinci guruh ranglari bir-biridan shunday farqlanadi: yashil rang yum shoq, tiniq, taskin beradi, u sovuqroq, jiddiyroq, hatto ba’zida g‘amgin tusga ega bo‘ligan moviy rangdan yuzaga kelgan taskindan farqli nafisroq erkalomchi, quvnoqroq hamdir.

Ko‘k rang ta’sirida bu sovuq va jiddiy tus kuchayadi va tinchlantiruvchi ta’sir ba’zida qiynovchi va ezuvchi ta’sirga aylanib ketadi. Eng kuchli ezuvchi va ruhiy bosim beruvchi ta’sir, ayniqsa, binafsha rangda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu rang bilan bog‘liq holda ichki bezovtalik, yashirin xavotir va noxushlik tuyg‘ulari paydo bo‘ladi; xafalik va bezovtalik o‘ziga xos tarzda birlashadi. Albatta, Stefanesku-Goang tomonidan o‘tkazilgan tajribalarda keltirilgan ranglarning ta’siriga oid bu kabi tavsiflar yuqori darajada subyektiv va nisbiy xarakterga ega. Organizmning hayot faoliyatiga ranglarning ko‘rsatadigan ta’siriga taalluqli bo‘lgan bu tajribalarning natijalari ish jarayonida va boshqa tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Qon aylanishiga ranglarning ta’siri haqidagi o‘xshash ma’lumotlar umuman boshqa usullar yordamida ham olingan. Qizil rang bilan bog‘liq holda yuqori darajadagi qo‘zg‘aluvchanlik va harakat tezligining oshishi haqida ayrim tajriba asosidagi ma’lumotlar mavjud. Bu ma’lumotlar bilan Liondagi Lyumer suratkashlik fabrikasi ishchilari ustidan o‘tkazilgan kuzatuvarlar ham to‘g‘ri keladi. Unda ishning ko‘p qismi qizil chiroqda bajariladi, lekin ba’zi predmetlarni ishlab chiqarish yashil chiroqdan foydalanishni joiz biladi. Ishchilar kun bo‘yi qizil chiroqda ishlaganlarida ular qo‘sinqaytgan, imoishorali harakatlar qilgani, asabiy va jizzaki bo‘lib qolganlari kuzatilgan. Yashil chiroq ishlatilganda, ular xotirjam bo‘lib, kechgacha kamroq charchaganlar.

Xulosa qilib aytganda, ranglar yordamida tinchlantirish yoki qo‘zg‘atishga erishish imkoniyatidan meditsinada ruhiy kasallarni davolashda foydalaniladi. Bu ishning birinchilaridan italyan ruhshunosi Ponza bo‘lgan. Uning rahbarligidagi ruhshunoslik kasalxonasida bir qancha rangli xonalar qilingan, ularning har birida ma’lum rangdagi deraza oynlari bo‘lgan; devorlar ham o’sha rangga bo‘yalgan.

Ranglarga beriladigan bahoga ularni qanday qabul qilish - ya’ni idrok turi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Rangni idrok etish shakllari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning asosiy xulosalaridan biri shuki, rangga nisbatan afzallik bildiruvchi baholash murakkab va ko‘p jihatli jarayon bo‘lib, ranglar har xil mezonlar asosida baholanishi mumkin. Masalan, o‘simliklarning yashil barglari chiroqli ko‘rinsa-da, insonning yashil

rangdagi tishlari yoqimsiz tuyuladi. Rangning ohangi, materiali va sirt tuzilishi - bularning barchasi uning estetik bahosiga ta'sir qiladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. O’E. Abdullayev, RANGSHUNOSLIK, Darslik.Toshkent-2022
2. O‘G‘Likomoldinov, S. J., & Abdirasilov, S. F. (2023). ON THE INTEGRITY OF ILLUSTRATION IN PAINTING LESSONS AND ITS RELATIONSHIP WITH COMPOSITION ACTIVITY. Экономика и социум, (3-2 (106)), 168-171.
3. Jomoldin o‘g‘li, K. S. (2022, April). RANGTASVIRDA MANZARA ISHLASHNING AMALIY AHAMIYATI. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 101-104).
4. Sattarov, F. (2024). SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF LEARNING THE RULES OF COMPOSITION AND DEPICTION IN PAINTING. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(10), 379-382.
5. Farxod, S. (2023). STILL LIFE GENRE CHARACTERISTICS AND EDUCATION PLACE IN THE PROCESS. Academia Science Repository, 4(04), 416-422
6. Adhamjon o‘g‘li, O. M. (2025). NATYURMORT TUZISH VA UNITASVIRLASH USULLARI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(33), 75-80.
7. Adhamjon o‘g‘li, O. M. (2024). QAYSI BIRI YAXSHIROQ: NATURADANMI YOKI FOTOSURATDANMI?. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(31), 222-225.
8. Rakhimov, K. (2023). THE PLACE OF GRAPHICS IN THE FINE ARTS. Solution of social problems in management and economy, 2(2), 5-8.
9. Rakhimov, K. (2023). THE SIGNIFICANCE OF SCULPTURE IN THE DEVELOPMENT OF MODERN FINE ART OF UZBEKISTAN. Current approaches and new research in modern sciences, 2(2), 5-9.
10. Boltaboyev, A. (2024). TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MEHANIZMI VA USULLARI. Академические исследования в современной науке, 3(8), 140-146.
11. Boltaboyev A. BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. 2023. T. 1. – №.
12. Babur, N., Muazzam, N., & Shahrizoda, A. (2024). THE UNIQUENESS OF WORKING WITH GEOMETRIC OBJECTS IN PENCIL DRAWING CLASSES. Western European Journal of Linguistics and Education, 2(2), 62-66.

13. Nabiyev, B. (2022). NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI TUZISH VA TASVIRLASHDA BOSQICHLAR ASOSIDA ISHLASHNING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 3(12), 334-338.
14. Бобур, А. Ў. Н. (2022). Тасвирий санъат асарларини яратишда композиция қонунларининг илмий асосларидан фойдаланиш. Science and Education, 3(2), 1087-1095.
15. O'G'Li, B. A. A., Lutfullayeva, S. N. Q., & Olimjonova, O. J. Q. (2024). Rangtasvirda kompozitsiya ishlashning qonun-qoidalari, uslublarini o'r ganishning nazariy va amaliy asoslari. Science and Education, 5(12), 214-218.
16. O'G'Li, B. A. A. (2024). Talabalarning figurali kompozitsiya ishlashda naturadan qarab ishlashning ahamiyati. Science and Education, 5(12), 229-232